

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 490 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНА	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Jonikulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
Хусанов Дурбек Нишанович	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
Xidirov Erkin Irgashovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
Akmal Shodiyev	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOBİ	408
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	



O'TKIR BRONXOLIT BILAN KASALLANGAN BOLALARDA KATAMNEZNING EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA UZIGA XOS KECHISHI.....	412
Azimova Kamola Talatovna	
THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING CONCEPTS RELATED TO YOUTH TOURISM	416
Norboyev Allayor Ismoilovich, Mansurova Zebuniso Abdurashidovna	
THE ESSEINTIAL STRATEGIES WAYS OF SERICULTURE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	420
Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich	
BLENDED LEARNING PLATFORMASI KANSEPSIYASI, ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL TUZILMASI.....	425
Qobulova Madina Tuxbatillo qizi, Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich	
ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA FAROVONLIGIGA TA'SIRI: IQTISODIY TAHLIL VA EKONOMETRIK BAHOLASH	430
Kuanishbay Berdimuratov	
MARKETING EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI	434
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
УЧЕТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ	443
Бабахонов Бабулжон Шухрат угли	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH MASALALARI.....	449
Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA BOSHQARUVINING RAQAMLI MODEL VA UNING SAMARADORLIGI	453
Olimova Bahora Shuxratovna	
MA'LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI	458
Maxamadiyev M. M.	
СУЩНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	463
Муминходжаева Дилноза Рамизовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ	468
Дурманов Акмал Шаймарданович	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	477
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI.....	483
Yuldashev Erkin Xusanovich	



O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI



Yuldashev Erkin Xusanovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Bank va moliya” kafedrası iqtisod fanlari nomzodi, v.v b., dosent

Email: erkin77boss@mail.ru

ORCID: 0009-0007-2351-1232

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda tijorat banklarining roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda bank tizimining moliyaviy vositachilik funksiyalari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari hamda investorlar ishonchini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, tijorat banklari investitsiya muhitini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim institutsional omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, tijorat banklari, investitsiya muhiti, bank tizimi, moliyaviy vositachilik, iqtisodiy o'sish.

Abstract. This article examines the role of commercial banks in attracting foreign investment to the economy of Uzbekistan. The study focuses on the functions of the banking system as a financial intermediary, mechanisms for financing investment projects, and the contribution of banks to building investor confidence. The findings indicate that commercial banks play a crucial institutional role in improving the investment climate and supporting sustainable economic growth.

Keywords: foreign investment, commercial banks, investment climate, banking system, financial intermediation, economic growth.

Аннотация. В данной научной статье анализируется роль коммерческих банков в привлечении иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. Рассматриваются функции банковской системы как финансового посредника, механизмы финансирования инвестиционных проектов и их значение в формировании доверия иностранных инвесторов. Результаты исследования подтверждают, что коммерческие банки являются ключевым институциональным элементом повышения инвестиционной привлекательности и устойчивого экономического развития страны.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, коммерческие банки, инвестиционный климат, банковская система, финансовое посредничество, экономический рост.

KIRISH

Bugungi globalashuv va kapital harakatining jadallashuvi sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar xorijiy investorlar uchun qulay va ochiq investitsiya muhitini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonda tijorat banklarining roli tobora ortib bormoqda.

Mamlakatda investitsiya faoliyatini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019 yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-

son¹ Qonuni xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular uchun teng va adolatli sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Mazkur qonun tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish, moliyaviy vositachilik funksiyalarini rivojlantirish hamda xalqaro kapital oqimini jalb etishda institutsional asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son² Farmonida bank-moliya tizimini transformatsiya qilish, banklarning investitsion faolligini oshirish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini chuqurlashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Aynan tijorat banklari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, kreditlash, loyihalarni baholash, risklarni boshqarish va investorlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali muhim ko'priq vazifasini bajarmoqda. Shu bois, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda tijorat banklarining o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning iqtisodiy o'sishdagi rolini ochib berish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda moliya tizimi, xususan tijorat banklarining o'rni iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Moliyaviy vositachilik nazariyasiga ko'ra, rivojlangan bank tizimi investitsiya jarayonlarini jadallashtiradi, kapitalni samarali taqsimlaydi va xorijiy investorlar uchun axborot assimetriyasini kamaytiradi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari Ross Levine tomonidan 1997-yilda e'lon qilingan tadqiqotlarda batafsil asoslab berilgan bo'lib, unda bank tizimi rivoji va iqtisodiy o'sish o'rtasida barqaror ijobiy bog'liqlik mavjudligi empirik jihatdan isbotlangan.

Xalqaro moliya institutlari tadqiqotlarida ham tijorat banklarining xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Jahon banki mutaxassislari Asli Demirgüç-Kunt va Ross Levine tomonidan 2008-yilda olib borilgan tadqiqotlarda bank sektorining institutsional sifati va moliyaviy barqarorligi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Mualliflar banklar orqali kreditlash, to'lov tizimlari va risklarni boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi investorlar ishonchini mustahkamlashini asoslab beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda banklarning vositachilik funksiyasi UNCTAD tomonidan e'lon qilingan 2021-yilgi Jahon investitsiya hisobotida ham muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan. Hisobotda rivojlanayotgan davlatlarda tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, qo'shma loyihalarda ishtirok etish va xalqaro moliya bozorlariga chiqishdagi roli investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishi ta'kidlangan.

Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda MDH mamlakatlari tajribasini tahlil qilgan Erik Berglōf va Patrick Boltonning 2002-yildagi ilmiy ishlarida bank sektorini isloh qilish xorijiy kapital oqimini jalb etishda muhim shartlardan biri sifatida ko'rsatiladi. Ularning xulosalariga ko'ra, bank tizimi shaffofligi va korporativ boshqaruvning kuchayishi xorijiy investorlar uchun moliyaviy xatarlarni kamaytiradi.

O'zbekiston iqtisodiyoti kontekstida tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi roli mahalliy olimlar tomonidan ham o'rganilgan. B.A. Abdukarimov va Sh.I. Mustafakulovning ilmiy tadqiqotlarida banklarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi ishtiroki, xorijiy kredit liniyalarini jalb etish hamda eksportga yo'naltirilgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan. Mualliflar bank tizimini modernizatsiya qilish xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishda muhim omil ekanini ilmiy asoslaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va xalqaro moliya institutlari hamkorligida tayyorlangan tahliliy hisobotlarda tijorat banklarining kapital yetarliligi, xalqaro reytinglar bilan ishlashi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi xorijiy investorlar ishonchini oshirayotgani qayd etilgan. Ushbu tadqiqotlar bank sektorining transformatsiyasi mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda nafaqat moliyaviy vositachi, balki institutsional barqarorlik va investorlar ishonchini ta'minlovchi muhim subyektlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki va UNCTADning rasmiy ochiq statistik bazalaridan olindi. Tijorat banklari faoliyati va xorijiy investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda taqqoslama tahlil, dinamik qatorlar tahlili hamda mantiqiy-taqqoslash usullaridan foydalanildi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda global integratsiya jarayonlariga izchil kirib bormoqda va bu jarayonning ajralmas qismi sifatida xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligi tobora oshib bormoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish murakkab jarayon bo'lib, unda tijorat banklari investitsion muhitni shakllantirish, kapital oqimini yo'naltirish va moliyaviy vositachilik tizimini mustahkamlash orqali markaziy rol o'ynaydi. Tijorat banklari nafaqat kreditlash mexanizmlarini taklif qiladi, balki investorlar uchun xavfsizlik, pul oqimlarini kuzatish va investitsiya loyihalarini baholash bo'yicha kompleks xizmatlarni ham amalga oshiradi.

Tijorat banklari orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etishning birinchi va asosiy mexanizmi banklar bilan to'g'ridan-to'g'ri investorlar o'rtasida moliyaviy aloqalarni o'rnatishdir. Banklar investorlarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, loyiha rentabelligini baholash, risklarni aniqlash va investorlarni investitsiya shartlari bilan yaqindan tanishtirish orqali investitsiya qarorlarini soddalashtiradi. Bu jarayonda banklarning ichki baholash tizimlari hamda xalqaro moliyaviy standartlarni qo'llash qobiliyati investorlar ishonchini oshiradi. O'zbekiston bank tizimi restrukturizatsiya va modernizatsiya jarayonidan o'tmoqda, bu esa banklarning xalqaro moliya bozorlarida shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mintaqaviy va global investitsiya fondlari, shuningdek, banklar bilan hamkorlikda tijorat banklarining aktivlarini aniq va hisobdor tarzda boshqarish tajribasi shakllanmoqda.

Investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha davlat siyosati ham tijorat banklarining rolini mustahkamlaydi. Xususan, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun investitsion faoliyatni tartibga soluvchi mustahkam huquqiy asos bo'lib, investorlar manfaatlarini himoya etish, sarmoya oqimini erkinlashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilaydi. Ushbu qonun investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi banklar uchun shaffof tartibni yaratadi va banklar tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida yuzaga keladigan yuridik to'siqlarni kamaytiradi. Huquqiy asosning aniq va barqarorligi investorlar uchun katta ahamiyatga ega, chunki bu ularning sarmoya xavfsizligini ta'minlaydi va investitsiya qilingan kapitaldan samarali foyda olish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, iqtisodiyotni liberallashtirish va raqobatbardosh bozor mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qabul qilingan boshqa normativ hujjatlar ham banklar orqali xorijiy kapitalni jalb etishda ijobiy sharoit yaratmoqda.

Tijorat banklari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda o'zining asosiy funktsiyalaridan biri sifatida kredit portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatini ham beradi. Banklar investorlar uchun investitsiya loyihalarini kreditlashda maxsus mahsulotlar — uzoq muddatli kredit liniyalari, strukturalangan moliyalash, garov mexanizmlari va kafolat xizmatlarini taklif qiladi. Bu esa investorlar uchun kapitalning qaytish muddatini moslash va risklarni boshqarish bo'yicha qo'shimcha imtiyozlarni yaratadi. Misol uchun, chet el kapitali bilan hamkorlikda ishlayotgan tijorat banklari orasida faoliyat ko'rsatayotgan yirik tijorat banklarining statistikasiga ko'ra, investitsion kreditlar portfeli o'sib borayotgan tendensiyaning saqlab qolmoqda, bu esa iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur resurslarni jalb etish imkoniyatini kengaytiradi. Xalqaro kredit liniyalari orqali banklar xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik qilib, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratmoqda va shu orqali investitsiya oqimlarini kuchaytiradi.

Banklar tomonidan xorijiy investorlar uchun shu bilan birga valutani almashtirish va pul o'tkazmalari bo'yicha xizmatlar ham yo'lga qo'yilgan. Bu investitsiya jarayonida valyuta risklarini boshqarish, pul oqimlarini tezkor amalga oshirish va xalqaro moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish imkonini beradi. Chet el kapitalining respublikaga kirib kelishini soddalashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar investorlar uchun bank orqali xizmat ko'rsatishni jozibador qiladi. Masalan, xorijiy fuqarolar va yuridik shaxslar uchun bank hisob raqamlarini ochish tartibining soddaga va soddalashtirilgan shakli investorlar uchun qulay investitsiya sharoitini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etishning yana bir muhim yo'nalishi — bu bankning o'zi kapitaliga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdir. So'nggi yillarda tegishli normativ bazani takomillashtirish orqali tijorat banklarining o'z kapitaliga xorijiy investorlarni jalb etish tartibi soddalashtirildi, bu esa banklar sektorining global integratsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Xorijiy sarmoyadorlar bank kapitali strukturasiga osonroq kirish imkoniga ega bo'lib, bu banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birga, ularning global moliyaviy aktivlar bozorlarida raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Portfel investorlarining kirib kelishi banklar faoliyatida korporativ boshqaruvni yaxshilaydi, shaffoflikni oshiradi va banklar bozorida samaradorlikni oshiradi. Bularning barchasi banklar orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari, shuningdek, investitsiya loyihalarini baholash va ularni monitoring qilish bo'yicha yuqori malakali ekspertiza xizmatlarini taklif etadi. Bu funktsiya investorlar uchun investorlik qarorlarini asoslash va risklarni oldindan aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Lokatsion tahlil, loyiha rentabelligi, valyuta risklari, makroiqtisodiy muhit va boshqa omillarni chuqur o'rganish banklar orqali taklif etiladigan xizmatlar to'plamiga kiradi. Bu esa investorlar manfaatlarini himoya qilish, investitsiya samaradorligini oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Tijorat banklarining investitsiyaviy tahlil xizmatlari milliy iqtisodiyotning istiqbolli sohalarini aniqlashga yordam beradi, bu esa sarmahsul sohalarga sarmoyalarni yo'naltirish orqali iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi.

Banklar orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ijobiy natijalari haqida statistik ma'lumotlar ham mavjud. Masalan, respublika investitsiyalari statistikasi bo'yicha investitsiyalar hajmi barqaror o'sib borayotgani kuzatiladi, bu esa banklar orqali sarmoya oqimining mustahkam asosga ega ekanini ko'rsatadi. Bu tendensiya banklar orqali investitsiya jalb etish mexanizmlarining amaliy samaradorligini yaqqol aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi, foizda³

Klassifikator	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	18,5	20,7	23,8	24,3	43,6	42,7	42,3	42,8	56,7	69,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	48,2	44,6	10	23,7	36,9	38,9	37,4	38,7	56,6	70,1
Andijon viloyati	4,4	4,9	7,2	14,8	39,6	36,3	45,6	48,4	63,9	77,9
Buxoro viloyati	35,9	52,4	71	44	53,9	48,2	58,5	58,4	72,1	82,3
Jizzax viloyati	2,9	7,3	10,8	8,7	48,8	61,9	44,5	47,3	70,7	75,6
Qashqadaryo viloyati	17,6	27,5	18	51,1	70,3	69,3	53,6	47	58	70,7
Navoiy viloyati	3	5,1	24,2	34	39,9	67,8	61,3	54,4	66,7	82,1
Namangan viloyati	21,9	22,6	31,6	33,5	45,8	37,2	29,8	34,7	55,7	82,3
Samarqand viloyati	4	2,2	2,8	4,7	27,8	27	34,9	52,7	49,3	59,6
Surxondaryo viloyati	10,4	9,8	11,5	21,4	66,3	60,1	45,2	42,3	66	62,4
Sirdaryo viloyati	10,8	7,7	4,6	9,6	44,8	48,7	59,8	79,1	81,4	70
Toshkent viloyati	15,3	13,7	12	9,6	26	26,7	34,3	32,4	56	71,3
Farg'ona viloyati	7,6	8,9	5,8	19,4	42,7	41,3	39,1	44,8	51,8	60,9
Xorazm viloyati	2,7	5,8	6,8	8,5	42,5	32	33,5	32,3	47,4	59,2
Toshkent shahri	13	16,4	18,1	15,1	36,7	29,9	37,3	30	40,3	51,7

Jadval ma'lumotlari 2015–2024-yillar davomida O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi barqaror va sezilarli darajada oshib borganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2019-yildan boshlab respublika miqyosida ushbu ko'rsatkichning keskin o'sishi kuzatiladi, bu investitsiya siyosatining liberallasuvi, bank-moliya tizimidagi islohotlar hamda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar bilan izohlanadi. 2024-yilda respublika bo'yicha ushbu ulushning 69,4 foizga yetishi xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, Buxoro, Navoiy, Namangan, Andijon va Sirdaryo viloyatlarida chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi ayniqsa yuqori sur'atlarda oshgan. Bu holat mazkur hududlarda yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi, xomashyo va sanoat salohiyatidan samarali foydalanish hamda tijorat banklari orqali xorijiy moliya resurslarining faol jalb etilishi bilan bog'liq. Masalan, Buxoro va Namangan viloyatlarida 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 82 foizdan oshgani banklar orqali investitsion moliyalashtirish mexanizmlarining amaliy samaradorligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko'rsatkichlarning nisbatan barqaror, ammo sekinroq o'sishi investitsiya manbalarining diversifikatsiyalanganligi va ichki moliyaviy resurslar ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi. Hududlar o'rtasidagi farqlar tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi faolligi, xalqaro kredit liniyalaridan foydalanish darajasi va hududiy investitsiya siyosati samaradorligi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari tijorat banklari xorijiy investitsiyalarni hududlar kesimida jalb etishda muhim moliyaviy tayanch bo'lib xizmat qilayotganini tasdiqlaydi (2-jadval).

3 Manba: Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2-jadval. Tijorat banklarining xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi asosiy funksiyalari va ularning iqtisodiy ahamiyati⁴

Tijorat banklari funksiyalari	Xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi roli	Iqtisodiy ahamiyati
Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish	Xorijiy investorlar ishtirokidagi loyihalarni kreditlash va qo'shma moliyalashtirish	Real sektorni rivojlantirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish
Moliyaviy vositachilik	Investorlar va mahalliy subyektlar o'rtasida moliyaviy aloqalarni ta'minlash	Kapital oqimining samarali taqsimlanishi
Risklarni boshqarish	Valyuta, kredit va moliyaviy risklarni baholash va kamaytirish	Investorlar ishonchini mustahkamlash
Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik	Xorijiy kredit liniyalari va investitsiya resurslarini jalb etish	Investitsiya resurslari hajmini kengaytirish
Bank infratuzilmasini rivojlantirish	To'lovlar, hisob-kitoblar va valyuta operatsiyalarini soddalashtirish	Investitsiya jarayonlarining tezlashuvi

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tijorat banklarining xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi ko'p qirrali va tizimli rolini yaqqol namoyon etadi. Avvalo, banklarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi ishtiroki real sektorni rivojlantirish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish uchun muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Moliyaviy vositachilik funksiyasi orqali banklar xorijiy investorlar va mahalliy xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida samarali aloqalarni yo'lga qo'yib, kapital oqimining maqsadli va oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi. Risklarni boshqarish mexanizmlarining rivojlanishi esa investitsiya jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy va valyuta xatarlarini kamaytirib, investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasida jalb etilayotgan kredit liniyalari investitsiya resurslari hajmini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bank infratuzilmasining rivojlanishi hisob-kitoblar va to'lov jarayonlarini soddalashtirib, investitsiya faoliyatining tezligi va samaradorligini oshirmoqda. Umuman olganda, jadval tijorat banklari investitsiya muhitini yaxshilashda strategik institut ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tijorat banklari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda jamiyat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Ular nafaqat moliyaviy vositachi sifatida, balki investitsion strategiyalarni shakllantiruvchi institutlar sifatida investitsiya muhitini yaxshilaydi, investorlar uchun xavfsiz va jozibador sharoit yaratadi hamda mamlakat imkoniyatlarini global bozorlar bilan uyg'unlashtiradi. Tijorat banklarining investitsiyalarni jalb etish bo'yicha hamkorligi davlat siyosati bilan uyg'unlashganda, bu iqtisodiy o'sishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda tijorat banklari muhim institutsional bo'g'in sifatida namoyon bo'lib, ular orqali moliyaviy resurslarni samarali safarbar etish, investitsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish va investorlar uchun qulay moliyaviy infratuzilmani shakllantirish imkoniyati kengayib bormoqda. Bank tizimining barqarorligi, kapitallashuv darajasining oshishi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlab, real sektorni moliyalashtirishda ijobiy natijalar bermoqda. Bu holat tijorat banklarining nafaqat kreditlash subyekti, balki investitsiya muhitini shakllantiruvchi strategik institut sifatidagi rolini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyatini yanada rivojlantirish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, banklarda investitsiya loyihalarini baholash va monitoring qilish mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, risklarni boshqarish tizimini chuqurlashtirish hamda xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va shaffoflikni kuchaytirish investorlar uchun axborot ochiqqligini ta'minlab, sarmoya kiritish qarorlarini tezlashtiradi.

Shuningdek, sohani rivojlantirish nuqtayi nazaridan tijorat banklarining uzoq muddatli investitsion kreditlash salohiyatini oshirish, bank kapitaliga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish hamda davlat va bank sektori o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan siyosatni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv bank tizimining barqarorligini mustahkamlash bilan birga, milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni yo'naltirishga xizmat qiladi va mamlakatning global investitsiya maydonidagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019 yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁴ Manba: Muallif ishlanmasi



3. B.A. Abdukarimov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. 2-nashr. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 368 b.
4. Sh.I. Mustafakulov. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bank mexanizmlari. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 212 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimini rivojlantirish bo'yicha tahliliy hisobot. – T.: Markaziy bank nashri, 2022. – 145 b.
6. World Bank. Global Financial Development Report. – Washington, DC: World Bank Publications, 2020. – 234 p.
7. UNCTAD. World Investment Report. – Geneva: United Nations, 2021. – 248 p.
8. Levine R. The Finance-Growth Nexus: Theory and Evidence. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 310 p.
9. Demirgüç-Kunt A., Martinez Peria M.S. Banking Crises: Causes, Consequences, and Policy Responses. – Washington, DC: World Bank, 2015. – 198 p.
10. Berglöf E., Bolton P. Corporate Governance and Financial Development. – Washington, DC: World Bank, 2002. – 176 p.
11. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 12th Edition. – New York: Pearson, 2019. – 720 p.
12. OECD. Investment Policy Reviews: Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 164 p.
13. IMF. Financial Sector Stability Review: Uzbekistan. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2022. – 110 p.
14. Vahabov A.V. Investitsiyalarni moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 240 b.
15. Sheremet A.D. Finansovyy analiz. Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2020. – 512 s.
16. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1998. – 896 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100